

**QORAQALPOG'ISTON
RESPUBLIKASIDA
QURILISH ISHLARI**


**2023- YIL
YANVAR-IYUL
OYLARI**

2023-yilning yanvar-iyul oylarida, Qoraqalpog'iston Respublikasida jami **3334,6** mlrd. so'mlik qurilish ishlari bajarilib, o'sish sur'ati 2022-yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan **105,5 %** ni tashkil etdi.



Qurilish ishlari hajmining tarkibi, % da

Qurilish ishlari hajmi yirik qurilish tashkilotlari, kichik korxona va mikrofirmalar hamda norasmiy sektorlarda amalga oshirilgan ishlar tarkibi bo'yicha shakllanadi.






Qurilish ishlari 2023- yil yanvar-iyul oylari uchun

	Qurilish ishlari, mlrd. so'm	Shu jumladan:		
		Yirik qurilish tashkilotlari	Kichik korxona va mikrofirmalar	Norasmiy sektor
Qoraqalpog'iston Respublikasi	3334,6	223,1	2348,0	763,5
Nukus sh. tumanlar:	1102,9	12,3	1000,5	90,1
Amudaryo	195,7		109,9	85,8
Beruniy	207,0		95,7	111,3
Bo'zotov	49,5		42,8	6,7
Qorao'zak	73,8	9,5	53,6	10,7
Kegeyli	74,2	3,6	56,9	13,7
Qo'ng'iroq	213,4	45,8	149,0	18,6
Qonliko'l	60,2		28,8	31,4
Mo'ynoq	77,5	53,1	10,7	13,7
Nukus	195,5		132,3	63,2
Taxiatosh	174,4	48,6	105,8	20,0
Taxtako'pir	42,7		29,9	12,8
To'rtko'l	361,7	46,9	198,2	116,6
Xo'jayli	119,6		82,8	36,8
Chimboy	89,4		34,8	54,6
Shumanay	27,8		10,8	17,0
Ellikqal'a	269,3	3,3	205,5	60,5

2023- yilning yanvar-iyul oylarida, jami qurilish ishlari hajmi tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi 223,1 mlrd. so'mni tashkil etdi. Qurilish ishlari 2022- yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan 91,9 % ni tashkil etib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 1,1 % punktga kamayib, 6,7 % ni tashkil etdi.



MA'LUMOT UCHUN: Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlaringning jami qurilish ishlari hajmidagi eng ko'p ulushi Mo'ynoq tumani (tumandagi jami qurilish ishlari hajmining 68,6 % i yoki 2022- yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan 223,5 %), Taxiatosh tumani (tumandagi jami qurilish ishlari hajmining 27,9 % yoki 2022- yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan 282,5 %) va Qo'ng'iroq tumani (tumandagi jami qurilish ishlari hajmining 21,5 % i yoki 2022- yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan 49,8 %) ga to'g'ri keldi.

Kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari



2023- yilning yanvar-iyul oylarida kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hissasiga jami qurilish ishlari hajmining 70,4 % i to‘g‘ri kelib, 2022- yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan 0,2 % punktga ko‘paygan. Shuningdek, ular hissasiga to‘g‘ri kelgan qurilish ishlari hajmi 2022- yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan 107,1 % ni tashkil etgan holda 2348,0 mlrd. so‘m miqdorida qayd etildi.

Kichik korxona va mikrofirmalar, ulushi, % da



70,4

2023- yil
yanvar-iyul


70,2

2022- yil
yanvar-iyul



MA’LUMOT UCHUN: Joriy hisobot davrida kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan eng yuqori hajm ko‘rsatkichi Nukus shahri (1000,5 mlrd. so‘m yoki umumiyligi hajmga nisbatan ulushi 90,7 %), Ellikqal‘a tumani (205,5 mlrd. so‘m yoki umumiyligi hajmga nisbatan ulushi 76,3 %), To‘rtko‘l tumani (198,2 mlrd. so‘m yoki 54,8 %) ga to‘g‘ri keldi.

Norasmiy hissasiga to'g'ri qurilish ishlari sekotor kelgan ulushi 22,9 % ni tashkil etdi yoki 763,5 mlrd. so'm miqdorida qayd etildi. 2022- yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan 105,3 % ni tashkil etdi.



Mulkchilik shakli davlat va nodavlat bo'lgan tashkilotlar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari, ulushi foizda

Davlat mulkchiligidagi tashkilotlar tomonidan jami **3265,9** mlrd. so'm qurilish ishlari bajarildi. Nodavlat mulkchiligidagi tashkilotlar tomonidan esa **68,7** mlrd. so'm qurilish ishlari bajarildi. Ularning respublikadagi ulushi mos ravishda **2,1** % va **97,9** % ni tashkil etdi.



**Umumiy hajmdan yangi qurilish,
rekonstruksiya, kengaytirish,
texnik qayta qurollantirish ishlari ulushi
2023- yil yanvar-iyul oylarida**



Bajarilgan qurilish ishlaringning katta qismi yangi bino va inshootlarni qurishga tegishli. Jami qurilish ishlaringning **74,7 %** i yoki **2489,9** mlrd. soʻm qurilish ishlari aynan iqtisodiyotda yangi ishlab chiqarish quvvatlari, turar-joy va boshqa ijtimoiy obyektlarni yaratishga qaratilgan.

7,9 %

Yirik qurilish tashkilotlari boʻyicha yangi qurilish hisobidan **195,0** mlrd. soʻmlik ishlar bajarildi yoki jami yirik qurilish tashkilotlarining yangi qurilish ishlaridagi ulushi **7,9 %** ni tashkil etdi.

Kichik korxona va mikrofirmalar boʻyicha yangi qurilish hisobidan **1592,1** mlrd. soʻm yoki jami kichik korxona va mikrofirmalarning yangi qurilish ishlaridagi **63,9 %** ni tashkil etdi.

63,9 %

28,2 %


Yangi qurilish ishlari hajmida norasmiy sektor hissasi **702,8** mlrd. soʻm yoki ularning jamiga nisbatan ulushi **28,2 %** ni tashkil etdi.



Shahar va tumanlar kesimida qurilish ishlari 2023- yil yanvar-iyul oylarida

	Qurilish ishlari, mlrd. so'm	O'sish sur'ati, % da	Ulushi, % da
Qoraqalpog'iston Respublikasi	3334,6	105,5	100,0
Nukus sh.	1102,9	105,7	33,1
<i>tumanlar:</i>			
Amudaryo	195,7	106,1	5,9
Beruniy	207,0	97,0	6,2
Bo'zotov	49,5	156,6	1,5
Qorao'zak	73,8	104,6	2,2
Kegeyli	74,2	102,8	2,2
Qo'ng'irot	213,4	87,1	6,4
Qonliko'l	60,2	104,9	1,8
Mo'ynoq	77,5	137,4	2,3
Nukus	195,5	105,0	5,9
Taxiatosh	174,4	116,7	5,2
Taxtako'pir	42,7	101,1	1,3
To'rtko'l	361,7	107,9	10,8
Xo'jayli	119,6	105,3	3,6
Chimboy	89,4	106,5	2,7
Shumanay	27,8	112,8	0,8
Ellikqal'a	269,3	107,6	8,1

Respublikada iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari



Ma'lumot uchun: Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlaringin asosiy qismi qurilish, turar joy va yashash uchun mo'ljallangan hamda yashash uchun mo'ljallanmagan binolar qurish bo'yicha amalga oshirilgan qurilish ishlaridan tashkil topdi.

Bino va inshootlar qurilishi



ulushi % da

2,3

2022- yil
yanvar-iyul

2,9

66,6

65,4

31,1

31,7

2023- yil
yanvar-iyul



Yirik qurilish
tashkilotlari



Kichik korxona
va mikrofirmalar



Norasmiy
sektor

Bino va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari ulushi 2,9 % ni tashkil etib, 2022- yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan 0,6 % punktga ko'paygan.

Ushbu faoliyat turida kichik korxona va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelgan ulush 2022- yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan 1,2 % punktga kamayib, 65,4% ni tashkil etdi.

Norasmiy sektoring ulushi esa 2022- yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan 0,6 % punktga ko'payib, 31,7 % ni tashkil etdi.

Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha qurilish ishlari

Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi 16,1 % ni tashkil etdi va 2022- yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan 2,2 % punktga kamaydi.

Shuningdek, kichik korxona va mikrofirmalar ulushi mos ravishda 83,9 % ni tashkil etdi.

ulushi % da



18,3



81,7

Yirik qurilish tashkilotlari

2022- yil yanvar-iyul



16,1




83,9

Kichik korxona va mikrofirmalar

2023- yil yanvar-iyul


Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi 2022- yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan 14,8 % punktga kamaydi va 18,1 % ni tashkil etdi. Qolgan, 81,9 % i kichik korxona va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelib, 2022- yilning yanvar-iyul oyiga nisbatan 14,8 % punktga ko'paydi.



Korxonalar turlari bo'yicha shahar va tumanlar kesimida qurilish ishlari 2023- yil yanvar-iyul oylari

ulushi % da



**Qoraqalpog'iston Respublikasi statistika boshqarmasi
Investitsiyalar va qurilish statistikasi
bo'limi**

**Aloqa telefoni: (61) 224-92-14
(61) 222-75-91**